Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

doi

Crossref
Content
Registration

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

1997-yildan nashr etiladi

Toshkent – 2026

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

PARLAMENTLARDA SUN'IY INTELLEKT (SI) TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA



Alisher ESHANKULOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti v.b., siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: https://doi.org/10.66539/jb2026.1.015

Annotatsiya: maqolada raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining parlament faoliyatiga integratsiyasi masalasi tadqiq etilib, Parlamentlararo ittifoq (PAI), Yevropa va AQSh parlamentlari xorijiy tajribasi hamda O'zbekiston parlamentining raqamlashtirish islohotlari tahlil qilingan. Maqolada SIning qonun ijodkorligi, analitik jarayonlar va jamoatchilik bilan muloqotni takomil-lashtirishdagi roli ochib berilib, shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik bias va etik xatarlar masalalari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot asosida O'zbekiston parlamenti uchun inson nazoratidagi (human-in-the-loop) bosqichma-bosqich integratsiya, "laboratoriya muhiti"da sinovdan o'tkazish va etik me'yorlar asosida SI texnologiyalarini joriy etish bo'yicha siyosiy-huquqiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, PAI, elektron parlament (e-Parliament), raqamli parlament, aqlli parlament (Smart Parliament), raqamli boshqaruv, demokratik hisobdorlik, qonun ijodkorligi, generativ SI (GenAI), inson nazorati (human-in-the-loop).*

Внедрение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в деятельность парламентов: зарубежный и национальный опыт

Alisher ESHANKULOV,
Академия государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан, доктор философии (PhD) по политическим наукам, и.о.доцент

Аннотация: статья исследует вопрос интеграции технологий цифровой трансформации и искусственного интеллекта (ИИ) в деятельность парламентов, также проанализирован зарубежный опыт Парламентского союза (ПС), парламентов Европы и США, а также реформ цифровизации парламента Узбекистана. В статье раскрывается роль ИИ в законодательной деятельности, аналитических процессах и совершенствовании взаимодействия с общественностью, рассматривается вопросы

безопасности данных, алгоритмических предвзятостей и этических рисков. На основе исследования разработаны политико-правовые рекомендации для парламента Узбекистана по поэтапной интеграции ИИ под контролем человека (human-in-the-loop), проведению тестирования в «лабораторной среде» и соблюдению этических норм.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, ПС, электронный парламент (e-Parliament), цифровой парламент, «умный парламент» (Smart Parliament), цифровое управление, демократическая подотчетность, законодательная деятельность, генеративный ИИ (GenAI), контроль человека (human-in-the-loop).*

Implementation of Artificial Intelligence (AI) Technologies in Parliaments: International and National Experience

Alisher Eshankulov,
acting associate professor at the Academy of state policy and management under the President of the Republic of Uzbekistan, doctor of Philosophy (PhD) in political science

Abstract: this scientific article provides a comprehensive analysis of the socio-political nature of mass unrest. It reveals the causes of their emergence, their impact on societal stability, and their interconnection with socio-political processes. Factors such as economic inequality, social injustice, political distrust, and information manipulation are considered as the main sources of protest movements. The study also examines the stages of development of mass unrest, their threats to security and the legal system, as well as the response of state and public institutions to these processes. As a result, the research develops scientific and practical recommendations for preventing mass unrest, managing them, and ensuring social stability.

Keywords: *mass unrest, socio-political processes, social stability, political distrust, economic inequality, social injustice, information manipulation, protest movements, security, legal system.*

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida axborot oqimlarining tezlashishi va qaror qabul qilish jarayonlarining murakkablashuvi qonun chiqaruvchi organlar oldiga tamoman yangi talablarni qo‘ymoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarini qamrab olayotgani kabi, parlament institutlari faoliyatini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi normativ-huquqiy jarayonlarni takomillashtirish, parlament nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning vakillik organlari bilan muloqotini yangi bosqichga ko‘tarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [11].

1889-yilda tashkil etilgan va bugungi kunda 180 dan ortiq milliy parlamentlarni o‘zida birlashtirgan PAI ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli

transformatsiya va SI texnologiyalarini joriy etish global parlament kun tartibining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Parlamentlar axborotga eng ko'p tayanadigan siyosiy institutlar sifatida qonun ijodkorligi, byudjet nazorati hamda saylovchilar bilan muloqot jarayonlarida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga majbur. Shu nuqtayi nazardan, SI texnologiyalarini joriy etish nafaqat texnik modernizatsiya, balki qonun chiqaruvchi hokimiyatning institutsional samaradorligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirishga ham xizmat qiluvchi chuqur siyosiy islohotlar bilan uzviy bog'liq jarayondir. 2024-yilgi "Jahon elektron parlament hisoboti"da dunyo parlamentlarining 68 foizi allaqachon ko'p yillik raqamli strategiyalarga ega ekanining qayd etilishi ham ushbu yo'nalishning qay darajada tizimli tus olganini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu jarayonlar alohida strategik ahamiyatga ega. Bir tomondan, mamlakatda Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'muriy islohotlar va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi davlat boshqaruvini, jumladan, Oliy Majlis faoliyatini raqamli asosda qayta qurishni taqozo etmoqda. Ikkinchi tomondan, O'zbekistonning 2025-yilda Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley Assambleyasiga mezbonlik qilganligi milliy parlamentni xalqaro demokratik standartlar va ilg'or texnologik yechimlarga moslashtirish uchun qulay imkoniyat yaratmoqda.

Parlament faoliya-tida SI texnologiyalarini joriy etish masalasi so'nggi yillarda siyosiy fanlar va davlat boshqaruvi yo'nalishlarida ham keng o'rganilmoqda. Ilk tadqiqotlarda "elektron parlament" (e-Parliament) tushun-chasi axborot-kommunikatsiya texnologi-yalaridan texnik foydalanish deb izohlangan bo'lsa, keyingi ilmiy tadqiqotlarda "raqamli parlament" va "aqlli parlament" (Smart Parliament) konsepsiyalari shakllanib, parlament jarayonlarini Avtomat-lashtirish va intellektual qaror qabul qilishga e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar, xususan, PAI, BMTning elektron boshqaruv bo'yicha hisobotlarida parlament raqamlashu-vining uch bosqichda rivojlanishi ta'kidlanadi: axborotni raqamlashtirish, jarayonlarni Avtomat-lashtirish va sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlar asosida tahliliy funksiyalarni joriy etish.

Akademik adabiyotlarda mazkur jarayonga nisbatan ikkita asosiy yondashuv mavjud. Bir guruh olimlar (J.Fountain, H.Margetts, B.W.Wirtz) SIni davlat va parlament faoliyati samaradorligini oshiruvchi instrument sifatida baholasa [5],[6],[12], boshqa tadqiqotchilar (F.Pasquale, V.Eubanks) algoritmik shaffoflik, "qora quti" effekti va algoritmik bias xavflariga e'tibor qaratadi [10],[2]. Shu bois xalqaro ilmiy adabiyotlarda SIdan foydalanishda inson nazoratini ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi [7].

PAIning 2024-yildagi tavsiyalari, shuningdek, ushbu sohadagi yetakchi ekspertlar R.Brownsword va L.Floridining ishlarida SI inson qarorlarini almashtiruvchi emas, balki qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida talqin qilinadi [1],[3],[21]. "Human-in-the-loop" tamoyili, etik me'yorlar va demokratik qadriyatlarga tayanish parlamentlarda SIni joriy etish samarador-ligining asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi [4].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar parlamentlarda SI texnologiyalarini joriy etish jarayoni texnologik innovatsiya bilan bir qatorda,

huquqiy, institutsional va etik omillar bilan uyg‘unlashtirilishi lozimligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotda sifatli tahlil usullari qo‘llanilgan, xususan: kontent tahlil: PAI 2019-2025-yillardagi strategik hujjatlari, rezolyutsiyalari, “Jahon elektron parlament hisoboti 2024” va SIni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomalar, qiyosiy tahlil: rivojlangan mamlakatlar parlamentlarining SI bo‘yicha strategiyalari va O‘zbekiston Oliy Majlisining raqamlashtirish salohiyati qiyosiy tahlil qilingan.

Zamonaviy davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlari qonun chiqaruvchi organlar faoliyatiga ham chuqur kirib kelmoqda. Xorijiy mamlakatlar parlamentlari SI texnologiyalarini joriy etish orqali qonun ijodkorligi samaradorligini oshirish, ma’lumotlar bilan ishlashni avtomatlashtirish hamda jamoatchilik bilan muloqot sifatini yaxshilashga intilayotganini ko‘rish mumkin. Mazkur jarayonlar: strategik rejalashtirish, institutsional islohotlar va texnologik innovatsiyalar uyg‘unligida amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, parlamentlarda SIdan foydalanish, asosan, quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy-huquqiy hujjatlarida sun’iy intellekt – insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish, mustaqil o‘rganish, yechimlarni izlash va aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish Imkonini beruvchi texnologik yechimlar majmui sifatida qayd etilgan [14].

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, parlamentlarda SIni joriy etish, avvalo, **uzoq muddatli raqamli strategiyalar** strategiyalar asosida yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, **Buyuk Britaniya** Parlamentining “Digital Strategy 2022-2027” dasturida SI qonun ijodkorligi, axborot boshqaruvi va jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirish vositasi sifatida belgilangan [26]. **Yevropa Parlamentida** esa, “Digital Parliament Strategy” doirasida raqamli texnologiyalar orqali ochiqlik va shaffoflikni oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan [16], [19]. **Kanada** Parlamenti raqamli transformatsiyani inson huquqlari, etika va ma’lumotlar xavfsizligi bilan uyg‘un holda amalga oshirishni maqsad qilgan [25]. Mazkur tajriba SIni joriy etish faqat texnik jarayon emas, balki tashkiliy, huquqiy va kadrlar salohiyatini qamrab oluvchi tizimli islohot ekanini ko‘rsatadi.

Ko‘plab parlamentlarda **qonun loyihalarini tahlil qilish**da SIning amaliy qo‘llanilishi (Use cases) muhim instrumentga aylanmoqda. SI asosidagi tizimlar qonun matnlarini avtomatik solishtirish, mavjud qonunchilik bilan ziddiyatlarni aniqlash hamda ta’sirni baholash (impact assessment), qonun loyihalarining mavjud qonunchilik bazasiga muvofiqligini tekshirish va o‘zgartirishlarni tahlil qilishda yordam beradi. **Finlyandiya** Parlamentida SI orqali qonun loyihalarining huquqiy uslubi va terminologiyasi tahlil qilinadi [23]. **AQSh Kongressida** esa, “Legislative Analytics” platformalari qonun hujjatlarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini prognoz qilishga xizmat qiladi [17]. Bu amaliyotlar qonun ijodkorligida inson omilini kamaytirish emas, balki deputatlar va ekspertlarning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Shuningdek, Parlament majlislari jarayonida nutqlarni matnga (stenogramma) aylantirish texnologiyalari orqali bayon-nomalarni tayyorlash hamda videomateriallarga

subtitrlar joylashtirish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. SI asosidagi speech-to-text va mashinali tarjima tizimlari majlislarni real vaqt rejimida matnga aylantirish va ko‘p tilli tarjima qilish imkonini berib, parlament faoliyatida stenografiya va tarjima ishlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan: Yevropa Parlamenti 24 ta rasmiy tilda avtomatik tarjima qiladigan SI tizimlaridan foydalanadi [20]. Yaponiya Parlamentida esa, deputatlar chiqishlarini avtomatik stenografiya qilish orqali ochiq ma’lumotlar bazasi shakllantirilmoqda [23]. Bu jarayonlar parlament faoliyatining oshkoraligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat, SI texnologiyalari orqali Parlament faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda jamoatchilik murojaatlarini tahlil qilish tizimlari joriy etilmoqda. Katta hajmdagi fuqarolar murojaatlari (public submissions)ni avtomatik klasterlash va sentiment-tahlil usullari orqali saylovchilarning ijtimoiy kayfiyati aniqlanmoqda. Mazkur texnologiyalar murojaatlarni tizimli ravishda saralash, mavzular bo‘yicha guruhlash hamda ijtimoiy fikrdagi asosiy tendensiyalarni belgilash imkonini berib, parlament qarorlarini qabul qilish jarayonining analitik asoslarini mustahkamlaydi. Avstraliya Parlamentida elektron murojaatlar SI orqali tahlil qilinib, ustuvor muammolar aniqlanadi [24]. Estoniya esa, elektron demokratiya platformalari orqali jamoatchilik fikrini qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilmoqda [18]. Bu amaliyotlar parlament – jamoatchilik aloqalarini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

GenAI texnologiyalari so‘nggi yillarda parlament amaliyotiga kirib kelmoqda. Ular tahliliy hisobotlar tayyorlash, brifing materiallari yaratish va qonun loyihalari bo‘yicha muqobil variantlar ishlab chiqishda qo‘llanilmoqda, ammo bu jarayon qat’iy “laboratoriya muhiti”da sinovdan o‘tkazilayotganiga alohida e’tibor qaratish zarur. **Buyuk Britaniya** Parlamentida GenAIdan xizmatchi xodimlar tomonidan dastlabki tahliliy loyihalarni tayyorlashda foydalanilmoqda, biroq inson nazorati saqlab qolingan [27]. Ushbu yondashuv SIni qaror qabul qiluvchi emas, balki qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida belgilaydi.

SI texnologiyalari parlamentlarda xalqaro tajribalarda keng tarqalgan bo‘lib, asosan, inson nazoratida (human-in-the-loop) prinsiplariga asoslanadi. PAI tomonidan berilgan tavsiyalar va hisobotlar SIni parlament jarayonlariga integratsiya qilishda bir nechta asosiy prinsiplarni belgilaydi [13].

Birinchidan, “qo‘llab-quvvatlash, o‘rnini egallash emas” prinsipi – SI texnologiyalari parlament a’zolari vazifalarini almashtirmay, balki ularning imkoniyatini kengaytirishi kerakligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda aytish joizki, ushbu tamoyil SI texnologiyalarini parlament va boshqa demokratik muassasalarda qo‘llashda asosiy etik va amaliy prinsip sifatida xizmat qiladi. Unga ko‘ra, SI inson faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, masalan, katta hajmdagi hujjatlarni tahlil qilish, jamoatchilik murojaatlarini klasterlash va asosiy faktlarni ajratib berish kabi vazifalarda yordam ko‘rsatadi, ammo qaror qabul qilish, qonunchilik va siyosiy muhokamalarda insonning o‘rnini bosmaydi.

Shu tarzda, SI faqat “assistent” vazifasini bajaradi, so‘nggi mas’uliyat esa, deputat yoki

rahbar zimmasida qoladi, bu esa demokratik hisobdorlik va inson huquqlari prinsiplarini ta’minlash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, SI vositalari joriy etilishidan oldin xavfsiz “laboratoriya muhiti”da (sandbox) sinovdan o‘tkazilishi zarurligi ta’kidlanadi [3], bu, o‘z navbatida, natijalarning aniqligi va xavfsizligini ta’minlaydi.

Xavfga asoslangan bosqichma-bosqich strategiya ham xalqaro tajribada asosiy usul sifatida qo‘llaniladi: xavfi past bo‘lgan ma’muriy vazifalarda SI ni joriy etish orqali deputatlar va operatorlar uning ishonchliligini baholashadi, yuqori xavfli sohalarda (asosiy qonunchilik tizimi) esa, inson nazoratining absolyutligi va qat’iy boshqaruv jarayonlari ta’minlanishi kerak [1]. Shu bilan birga, SI natijalari loyiha sifatida qaraladi va har bir kontent inson tomonidan tekshirilmay turib, rasmiy qabul qilinmaydi.

Milliy tajriba: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, parlament majlislarining ochiq tarzda onlayn translyatsiya qilinishi, qonun loyihalarini muhokama qilishda jamoatchilik ishtirokining kengaytirilishi hamda electron axborot tizimlarining joriy etilishi parlamentni raqamli transformatsiya qilish jarayonini jadallashtirdi.

O‘zbekistonning PAI bilan hamkorligi 2017-yilda qayta tiklanganidan so‘ng yangicha mazmun kasb etdi. 2025-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan PAIning 150-Assambleyasi O‘zbekiston parlamentarizmi tarixida muhim siyosiy-huquqiy voqea sifatida namoyon bo‘ldi. Assambleyaning asosiy mavzui: “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” deb belgilangan bo‘lsa-da, uning doirasida fan, texnologiyalar va raqamli transformatsiya masalalariga bag‘ishlangan maxsus muhokamalar ham o‘tkazildi. Xususan, Fan va texnologiyalar bo‘yicha ishchi guruh yig‘ilishlarida sun’iy intellektning davlat boshqaruvi va qonun ijodkorligidagi roli, uning etik chegaralari hamda institutsional joriy etish mexanizmlari muhokama qilindi. Bu O‘zbekiston parlamenti uchun global tajribani o‘rganish va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida parlament faoliyatini raqamlashtirishni jadallashtirish imkonini berdi.

2025-yilning fevral oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Bundan maqsad: sohani huquqiy jihatdan tartibga solish, qonunchilikni takomillashtirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish hamda qonun ijodkorligi jarayonida ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ishtirokini kuchaytirish, xorijiy tajribani o‘rganish va uni milliy qonunchilikka joriy etish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirishdan iborat.

Hozirda milliy Parlamentda «Regulation.gov.uz» va «Meningfikrim.uz» platformalari orqali normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan fuqarolar fikrini yig‘ishda, avtomatik tahlil, klasterlash va xulosa chiqarishda SIdan foydalanilmoqda [9].

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda SIni davlat boshqaruviga joriy etish umumiy strategiya va konsepsiyalar orqali siyosiy-huquqiy jihatdan asoslab berilgan.

SIdan foydalanishni bevosita va bilvosita tartibga soluvchi asosiy hujjatlar quyidagicha talqin etiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi **“Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish stra-tegiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi PQ-358-son qarori. Ushbu qaror butun davlat boshqaruvi tizimi, jumladan, Parlament faoliyati ham qamrab olingan strategik dasturiy hujjat hisoblanib, unda Parlament zimmasiga, avvalo, qonunchilik bazasini moslashtirish, hukumat faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini kuchaytirish, kadrlar va institutlar salohiyatini rivojlantirish hamda jamoatchilik bilan ochiq muloqotni tashkil etishdek kompleks vazifalar qo‘yilgan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi **“2025-2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 425-sonli qarori [15]. Mazkur qaror bilan PQ-358-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi davlat muassasasi tashkil etildi hamda 2025-2026-yillarda amalga oshiriladigan ustuvor loyihalar belgilab berildi.

3. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi – davlat organlari, shu jumladan, Parlament raqamli ekotizimini, SI etikasi va kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [8]. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida davlat boshqaruvi organlarini, jumladan, Parlament faoliyatini raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur strategiya SI texnologiyalarini qonun ijodkorligi va tahliliy jarayonlarga bosqichma-bosqich integratsiya qilish uchun me’yoriy-huquqiy va tashkiliy imkoniyatlarni ta’minlaydi.

4. 2026-yil 21-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1115-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yilda qabul qilingan «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi 560-II-sonli Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi [14].

Shu o‘rinda aytish o‘rinliki, ijobiy yutuqlar bilan birga, milliy Parlament amaliyotiga SIni joriy etish bilan bog‘liq ayrim kamchiliklar ham mavjud, jumladan:

- shu sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar va huquqiy tartibga solishning yetarli emasligi. SIdan foydalanishga oid aniq qoidalar, javobgarlik masalalari va etik standartlarning to‘liq shakllanmagani;
- Parlament axborot tizimlari o‘rtasida integratsiya muammosining mavjudligi va ma’lumotlarning tizimlashtirilmagani SI samaradorligini cheklaydi.

Tadqiqot natijalari Parlament faoliyatiga SI texnologiyalarini joriy etish: qonun ijodkorligi sifatini oshirish, parlament nazoratini kuchaytirish hamda jamoatchilik bilan muloqot samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Xorijiy va milliy tajribalar tahlili SIning ma’lumotlar bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish, tahliliy qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash va ijro hokimiyati ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirishda muhim instrument sifatida namoyon bo‘layotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot SIni parlament tizimiga joriy etish inson omilini chetga surmasdan, aksincha, uning intellectual

salohiyati va mas'uliyatli qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi lozimligini asoslab berdi. Bu borada "human-in-the-loop" prinsipini institutsionallashtirish, algoritmik jarayonlarda inson nazoratini ta'minlash va demokratik qadriyatlar ustuvorligini saqlashda SIdan samarali foydalanishning hal qiluvchi sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot O'zbekiston Parlamenti uchun SI texnologiyalarini joriy etish faqat texnologik yangilanish emas, balki demokratik institutlarni mustahkamlashga qaratilgan strategik yo'nalish ham ekanini ko'rsatdi. Milliy raqamli strategiyalar, parlamentda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlari SIni bosqichma-bosqich integratsiya qilish uchun zarur institutsional va siyosiy asosni shakllantirmoqda.

Ayni paytda, O'zbekistonda Parlament faoliyatida SI yordamida jamoatchilik fikrini avtomatik tahlil etish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini modellashtirishga qaratilgan pilot loyihalar hamda maxsus huquqiy normalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, SI texnologiyalarini Oliy Majlis faoliyatiga ilmiy asoslangan, inson nazorati va etik me'yorlarga tayangan holda joriy etish qonunchilik jarayoni samaradorligini oshirish, Parlament nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning vakillik organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda xorijiy parlamentlar tajribasi, PAI standartlari tahlili asosida hamda tadqiqot xulosalariga tayangan holda quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

- Parlamentda SI va ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha alohida Etika kodeksi qabul qilinib, unda algoritmik shaffoflik, ma'lumotlar maxfiyligi va adolat tamoyillari mustahkamlanishi lozim;
- Oliy Majlis apparati tarkibida "Raqamli transformatsiya va SI markazi" yoki shunga o'xshash maxsus bo'linma tashkil etish;
- Parlament vakillari uchun SI savodxonligiga oid dastur ishlab chiqib, SI etikasi bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish;
- Parlament apparati tarkibida data-tahlilchilar, SI mutaxassislari va ko'p tarmoqli tahliliy guruhlarni shakllantirish;
- Qonun ijodkorligi jarayonida Generativ SI vositalaridan analitik yordamchi vosita sifatida foydalanishni sinov tariqasida qo'llash, xususan, qonun loyihalarini solishtirish, tahrirlash va huquqiy ziddiyatlarni aniqlashda joriy etish lozim.
- Jamoatchilik fikrini tahlil qilishda SIdan foydalanishni institutsionallashtirish, elektron platformalar orqali kelib tushayotgan murojaat va takliflarni klasterlash va sentiment-tahlil qilishni yo'lga qo'yish zarur.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Brownsword R. Law, Technology and Society: Re-imagining the Regulatory Environment. - London : Routledge, 2019. - 198 p.
2. Eubanks V. Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor. - New York : St. Martin's Press, 2018. - 272 p.
3. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence. - Oxford: Oxford University Press, 2023. - 352 p.
4. Floridi L., Cowls J. A unified framework of five principles for AI in society // Harvard Data Science Review. - 2019. - Vol. 1, No. 1.
5. Fountain J. E. Building the Virtual State: Information Technology and Institutional Change. - Washington, DC: Brookings Institution Press, 2001. - 256 p.;
6. Margetts H., Dunleavy P. Digital Era Governance: IT Corporations, the State, and e-Government. - Oxford: Oxford University Press, 2013. - 272 p.
7. Mittelstadt B. D., Allo P., Taddeo M., Wachter S., Floridi L. The ethics of algorithms: Mapping the debate // Big Data & Society. - 2016. - Vol. 3, No. 2. - P. 1-21.
8. Muxiddinovna, T. (2025). Ethics of AI Technologies as a Task in the Training of Public Civil Servants in the Republic of Uzbekistan. // International Journal of Philosophy. https://doi.org/10.11648/j.ijp.20251302
9. Nazarov, S. (2025). The Role Of Artificial Intelligence Technologies In Public Oversight And Expertise: Uzbekistan's Experience And International Practices. //The American Journal of Political Science Law and Criminology. https://doi.org/10.37547/tajpslc/volume07issue10-03
10. Pasquale F. The Black Box Society: The Secret Algorithms That Control Money and Information. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2015. - 336 p.;
11. Van Noordt, C., Medaglia, R., & Tangi, L. (2023). Policy initiatives for Artificial Intelligence- enabled government: An analysis of national strategies in Europe. Public Policy and Administration, 40, 215 - 253. https://doi.org/10.1177/09520767231198411
12. Wirtz B. W. Public Sector Management: Theory, Strategy and Leadership. - Wiesbaden: Springer Gabler, 2019. - 412 p.
13. Parlament tadqiqotlari instituti. Parlamentlararo ittifoq: maqomi, strategik vazifalari va O'zbekiston bilan hamkorligi. – Toshkent: Parlament tadqiqotlari instituti, 2025.
14. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1115-son Qonuni. https://www.lex.uz/uz/docs/8008401
15. 2025-2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishga oid qaror qabul qilindi. https://gov.uz/oz/digital/news/view/67962
16. "Human-in-the-loop Principles," 2022–2026 Strategy Report; World e-Parliament Report 2024. - Geneva: IPU, 2024. - 210 p.
17. Congressional Research Service. Artificial Intelligence and Big Data in Legislative Decision-Making. - Washington, DC: CRS, 2021. - 34 p.

18. Estonian Government. e-Democracy and Digital Participation Platforms. - Tallinn, 2019. - 34 p.
19. European Parliament. Digital Parliament Strategy. - Brussels: European Parliament, 2021. - 24 p.
20. European Parliament. Multilingualism and AI-based Translation Systems. - Brussels, 2020. - 19 p.
21. Government Accountability Office. Artificial Intelligence: An Accountability Framework for Federal Agencies and Other Entities. - Washington, DC : GAO, 2020. - 59 p.
22. Inter-Parliamentary Union. World e-Parliament Report 2024. - Geneva: IPU, 2024. - 210 p.
23. National Diet of Japan. AI-Based Stenography and Open Parliamentary Data. - Tokyo, 2021. - 22 p.
24. OECD. AI in the Public Sector: Opportunities and Challenges. - Paris: OECD Publishing, 2020. - 187 p.
25. Parliament of Australia. AI for Public Submissions Analysis. - Canberra, 2020. - 26 p.
26. Parliament of Canada. Digital Transformation Strategy. - Ottawa: Parliament of Canada, 2020. - 30 p.
27. UK Parliament. Digital Strategy 2022 - 2027. - London: UK Parliament, 2022. - 38 p.
28. UK Parliament. Guidelines on the Use of Generative AI in Parliamentary Services. - London, 2023. - 15 p.